

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING RO'LI

Xo'jaqulova Gulsanam Odiljonovna

Fan va texnologiyalar universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi kechki ta'limi

2/25-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati va zamonaviy texnologiyalarning o'rnini yaratilgan. O'qituvchining pedagogik mahorati va zamonaviy texnologiyalarning o'quv jarayoniga ta'sir tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jaroyonida innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati korsatib berilgan. Maqolada o'qituvchi va texnologiyaning uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshirishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, o'qituvchi, pedagogik mahorat, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ta'lim, ta'lim jaroyoni, AKT, interfaol metodlar.

Annotatsiya: В данной статье рассматривается роль учителя и современных технологий в повышении качества образования. Анализируется педагогическое мастерство учителя и значение современных технологий в образовательном процессе. Обосновывается, что взаимодействие учителя и технологий способствует повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: качество образования, учитель, педагогическое мастерство, современные технологии, образовательный процесс, ИКТ, инновационное обучение, интерактивные методы.

Annotation: this article examines the role of teachers and modern technologies in improving the quality of education. It analyzes the pedagogical skills of teachers and the importance of modern technologies in educational process. It is substantiated that the interaction between teachers and technology increases the effectiveness of learning.

Keywords: quality of education, teacher, pedagogical skills, modern technologies, educational process, ICT, innovative education, interactive methods.

Kirish. O'qituvchi - pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir.

O'qituvchi ta'lim jaroyonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilish lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar

ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. Shaxsga ta'lim-tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk arboblari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni va nafaqat shaxs kamolati, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga Molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimiga bevosita dahldor barcha sohalarni butunlay isloh qilishga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni qayd etadi: "Ta'lim islohoti bizni demokratik o'zgarishlar yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo'lmog'i zarur. Har birimizga ayon bo'lsinki, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartimasdan turib, odamlar ongini demakki, ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas.

Bugungi kunda o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchini ta'limini qanday tashkil etishi kerak:

-avvalo u o'z mutaxassisligiga bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmuni yaxlitligini ta'minlashi;

-pedagogik va axbarot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axbarot texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi;

-ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi;

-ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi;

-ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida jahonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan ilg'or tajribalarni amalda modernizatsiya qilgan holda qo'llashi;

Zamonaviy o'qituvchi quyofasidagi shaxs pedagogik-psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun, unda quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak (so'z yuritilayotganda sifatlar mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va ma'suliyatlarini berishi lozim.

1.O'qituvchi mamlakatimizning ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berishi lozim.

2.Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi shart.

4.Oqituvchi pedagogika va psixologiya fanlari aoslaridan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi, ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o‘z faoliyati tashkil etilishi zarur .

5.O‘qituvchi axbarot texnologiyalarning eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

6.O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi davr talabidir.

7.O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatini, pedagogik texnika sirlarini (nutq, chehra, qo‘lloq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o‘zlashtirib olishga erishishi lozim. Ayniqsa, o‘qituvchi o‘zining individual nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni ak ettirishi kerak;

- a)nutqning to‘g‘riligi;
- b)nutqning aniqligi;
- c)nutqning ifodali bayon etilishi;
- d)nutqning sofliqi;
- e)nutqning ravonligi;
- f)nutqning boyliqi;

O‘qituvchining mazkur talablariga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota- nalar orasida obro-e‘tiborni qozonadi.

Jamiyatning tarbiyaga bo‘lgan ehtiyoji juda qadimdan mavjud bo‘lib, ana shu ehtiyoj tufayli pedagogika fan sifatida vujudga kelgan. Har bir ijtimoiy tizimda insonning ma’naviy yuksalishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat kabi tushunchalar mavjud bo‘lib, ular pedagogika fanidagi o‘zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda atroflicha o‘rganishni taqozo etadi.

Texnologiya- bu berilgan paremetrlarga mos keladigan mahsulot olishga yo‘naltirilgan dastlabki materiallarni o‘zgartirish jarayoni va uslublarning yig‘indisi. Pedagogik texnologiya -bu faqat kopmyuter va texnologik vositalarni qo‘llash emas, bu ta’lim samaradorligini oshiradigan faktorlarni tahlil qilish yo‘li bilan umumta’lim jarayonini optimallashtirish usullarini ishlab chiqish va prinsiplarni aniqlash.”Texnologiya” – yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “ tehnos”- mahorat, sa’nat.”logos” – ta’limot , fan degan ma’nolarni anglatadi.

Texnologiya bu sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta’lim evolutsiyasi bosqichni tayyorlagan obektiv jarayon hisoblanadi. Texnologiya tushunchasi texnik tarqqiyot natijasida paydo bo‘ladi va uning lug‘aviy ma’nosi (kasb, fan, tushuncha , ta’lim, sa’nat) materiallarning ishlash usul va uslublaridan iboratdir. Fan va texnika taraqqiyoti inson imkoniyatlarining kengayishiga olib keladi.

Yangi texnologiyalar katta ta’lim imkoniyatlarini ochdi. Ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, odat bo‘lgan tushuntirishda “o‘rgatish” jarayonlari

o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib eta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axbarot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish hali to'la o'rganilmagan. Bu haqida chet ellik va o'zbek avtorlari ko'p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogic texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishiga ishonadilar.

Budapeshtda 1977 yilda YuNESKO tomonidan tashkil qilingan xalqaro seminarda ta'limdagi texnologik jarayonning asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tiladi.

1. Texnikani mukammal bilish va ishlatish

2. Audioizual materiallar fondi bilan tanishish.

3. Ularning samarali ishlatish metodikasini egallash va ijodiy yondashish. Hozirgi zamon chet el va vatanimiz tajribasini tahlil qilish asosida, bugun ta'lim jarayonini shakllantiruvchilar doirasi kengaytirilmog'i lozim. "Ta'lim texnologiyasi" tushunchasiga ta'lim maqsadlarini tahlil qilish va rejalashtirish, o'quv-tarbiya jarayonini ilmiy tashkil qilish, ta'lim samaradorligini ta'minlaydigan vosita, material va metodlar tanlanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z tasirini ko'rsatmoqda.

Metodika asosiga qurilgan ta'limga qaraganda ta'lim texnologiyasi ko'qirralidir.

Birinchidan, texnologiya asosida tub mahsulotlarni aniq tavsifi turadi. Texnologiyada maqsad markaziy component hisoblanib, bu holat unga erishish darajasini aniq topishga olib krladi.

Ikkinchidan, tub va oraliq maqsadlari aniqlangani uchun texnologiya maqsadga erishish va nazorat obektiv usullarini ishlab chiqishga yo'l ochadi.

Uchinchidan, texnologiya o'qituvchining pedagogic eksperiment qilishga majbur qiladigan holatlarni kamaytiradi.

To'rtinchidan, texnologiya o'qituvchi va uni faoliyati turlariga yo'naltirilgan dars ishlanmalari o'rniga o'quvchilarning o'quv o'rganish faoliyati mazmuni va tuzilishini aniqlaydigan o'quv jarayonining loyihasini beradi. Metodik dars ishlanmasi har bir o'qituvchi tomonidan turlicha o'zlashtiriladi, dars va o'quvchilar faoliyati ham turlicha tashkil qilinadi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini loyihalashtirishda esa, programmlashtirilgan ta'lim tajribasi ko'rsatganidek o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'taradi.

O'zbekiston resublikasi siyosiy mustqailigi qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshladi. Totalitar boshqaruv usuli asosida, ish yuritilayotganda xalq ta'limi tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni

amalga oshirishga undaydi. Bu boradagi say-harakatlarlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk Ta'lim to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun mazmunida Respublika ta'lim tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "talim to'g'risida"gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T: Sharq 1997, 20-29 betlar.
- 2.Karimov I.A barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997, 9- bet.
- 3.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Oliy ta'lim ; me'yoriy hujjatlar to'plami – Toshkent; Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kopmaniyasi bosh tahririyati 2001, 20 bet.
- 4.Karmov.I.Barkamol avlod orzusi. – Toshkent; sharq. 1999. 95 bet.